



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 2-sentabr, № 181 (9076)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



SHHT DOIRASIDAGI KO'P TOMONLAMA HAMKORLIKNI KENGAYTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI KO'RSATIB O'TILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 1-sentyabr kuni Tyanszin shahrida Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisida ishtirok etdi.



上海合作组织成员国元首理事会第二十五次会议

25-ое заседание Совета глав государств-членов Шанхайской организации сотрудничества

中国·天津 Тяньцзинь, Китай

2025年9月1日 1 сентября 2025 года



Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin raisligida o'tgan tadbirida Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko, Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Narendra Modi, Eron Islom Respublikasi Prezidenti Mas'ud Pezeshkiyoni, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz Sharif, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon,

shuningdek, ShHT bosh kotibi Nurlan Yermekbayev va Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi Ijroiya qo'mitasi direktori Ularbek Sharsheev qatnashdi.

Kun tartibiga muvofiq, ShHT doirasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish va tashkilot faoliyatini takomillashtirish istiqbollari muhokama qilindi, mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ochiq fikr almashildi.

Xitoy Raisi Si Szinpin davlatimiz rahbariga so'z berar ekan, mamlakatimiz

yetakchisi va xalqini Mustaqillik kuni bilan qutladi hamda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O'zbekiston yuksak sur'atda rivojlanib, mamlakatda hayot yaxshilangani hamda Xitoy tomoni bundan juda mamnunligini alohida ta'kidladi.

Prezidentimiz uchrashuv ishtirokchilarini qutlab, Xitoyning ShHTga raisligini yuksak baholadi va Ikkinchi jahon urushidagi buyuk G'alabani 80 yilligi bilan tabrikladi, shuningdek, ShHTga a'zo davlatlar delegatsiyalari rahbarlariga

O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni munosabati bilan bildirgan samimiy tabriklari va ezgu tilaklari uchun minnatdorlik izhor etdi.

Mamlakatimiz yetakchisi ushbu sammit global noaniqlik sharoitida o'tayotganini qayd etdi.

Ishonchning tizimli inqirozi, mojarolarning kengayib borayotgani, ko'p tomonlama institutlarning zaiflashishi va jahon savdo tizimining parchalanishi xalqaro xavfsizlik va barqarorlik arxitekturasini asoslariga putur yetkazmoqda.

– Bunday sharoitda ShHT davlatlarining bir-birini o'zaro tushunishi va birdamligi – bu faqat qimmatli boylik emas, balki bizning bepoyon mintaqamizda tinchlikni saqlashning kalitidir, – dedi O'zbekiston yetakchisi.

ShHT doirasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlash maqsadida davlatimiz rahbari quyidagi masalalarga e'tibor qaratdi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI DAVLAT RAHBARLARI KENGASHI MAJLISIDAGI NUTQI

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Avvalo, Xitoy Xalq Respublikasining Raisi, hurmatli Si Szinpin Janobi Oliylariga majlisimizni yuksak darajada tashkil etgani va samimiy qabul uchun chin dildan minnatdorlik izhor etaman.

Shuningdek, barcha ishtirokchilarni xalqlarimiz ulkan hissa qo'shgan Ikkinchi jahon urushida qozonilgan buyuk G'alabani 80 yilligi munosabati bilan tabriklashga ham ijozat bergaysiz.

Qirg'iz Respublikasining Mustaqillik kuni munosabati bilan hurmatli Prezident Sadir Nurg'ojoyevich Japarovga bildirilgan tabriklarga qo'shilaman va O'zbekistonning eng ulug' va asosiy davlat bayrami munosabati bilan aytilgan iliq so'zlaringiz uchun minnatdorlik izhor etaman.

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

Bizning uchrashuvimiz Xitoyning qadimiy madaniyati hamda uning sanoat va texnologik yo'nalishdagi jadal taraqqiyoti o'rtasidagi uyg'unlikni o'zida mujassam etgan Tyanszin shahrida bo'lib o'tmoqda.

Bu yerda buyuk Konfutsiyaning “Hayotda o'z o'rnini topishni xohlar ekansan, boshqalarga yordam ber, muvaffaqiyatga intilar ekansan, boshqalarning yutug'iga ko'mak ber”, degan hikmatli so'zlari o'zgacha ruhda yangraydi.

Bu ming yillik falsafa o'zaro hurmat va bir-birini qo'llab-quvvatlash, har bir a'zo davlat manfaatlarini hisobga olish tamoyillariga asoslangan Shanxay hamkorlik tashkilotining bugungi missiyasiga hamohangdir.

ShHT makonida umumiy taraqqiyot va ravnaq aynan ana shunday mustahkam poydevor ustida barpo etilmoqda, deb hisoblayman.

Xitoyning samarali raisligi tufayli Tashkilotimizning nufuzi yanada mustahkamlandi, mamlakatlarimizning o'zaro manfaatli amaliy hamkorligi kengaydi.

Ishonchim komilki, o'tayotgan ushbu sammit yangi tarixiy davrni boshlab beradi va o'zaro munosabatlarining uzoq istiqboliga mo'ljallangan strategik yo'nalishlarini belgilab olishga xizmat qiladi.

Hurmatli hamkasblar!

Iqtisodiy, intellektual, resurs va texnologik yo'nalishlarda ulkan salohiyatga ega bo'lgan Shanxay hamkorlik tashkiloti xalqaro maydonda o'z ta'sirini izchil kengaytirib bormoqda. Global noaniqlik kuzatilayotgan hozirgi sharoitda bu muhim ahamiyatga egadir.

Ishonchning tizimli inqirozi, mojarolarning kengayib borayotgani, ko'p tomonlama institutlarning zaiflashishi va jahon savdo tizimining parchalanishi xalqaro xavfsizlik va

barqarorlik arxitekturasini asoslariga putur yetkazmoqda. Bunday sharoitda ShHT davlatlarining bir-birini o'zaro tushunishi va birdamligi – bu faqat qimmatli boylik emas, balki bizning bepoyon mintaqamizda tinchlikni saqlashning kalitidir.

Ayniqsa, ShHT teng huquqli muloqot, o'zaro hurmat va sheriklik makoni bo'lib qolayotgani muhim. Aynan shu jihat manfaatlar muvozanatini ta'minlash va zamonamizning eng murakkab xavf-xatarlariga birgalikda javob topish imkonini bermokda.

ShHTning ovozi bizning umumiy siyosiy irodamiz ifodasi, tinch kelajak va barqaror taraqqiyot yo'lidagi qat'iy sa'y-harakatlarga chorlovimiz sifatida yanada ishonchli va baralla yangrashi kerak, deb hisoblaymiz.

Ko'p tomonlama hamkorlikni yanada chuqurlashtirish bo'yicha o'z qarashlarimiz bilan o'rtoqlashishni istar edim.

Eng avvalo, Tashkilotning samaradorligini oshirish, uning institutlari va qarorlarni amalga oshirish mexanizmlarini mustahkamlash zarur. Tashkilotni transformatsiya qilish bo'yicha Samarqand sammitida boshlangan jarayonlar ushbu muhim vazifalarni hal etishga yordam beradi, deb ishonaman.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING “SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI PLYUS” FORMATIDAGI MAJLISDAGI NUTQI

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Xitoy Xalq Respublikasi Raisi, hurmatli Si Szinpin Janobi Oliylariga an'anaviy samimiy qabul va mamlakatning “shimoliy darvozasi”, deb ataladigan go'zal va jo'shqin Tyanszin shahrida sammitni yuksak darajada tashkil etgani uchun yana bir bor chin dildan minnatdorlik izhor etaman.

Kuzatuvchi davlatlar, sheriklar va sammit mehmonlari delegatsiyalarini, shuningdek, yetakchi xalqaro institutlar rahbarlarini qutlashdan mamnunman.

Tom ma'noda ochiqlik va ko'p tomonlama hamkorlik ruhiga javob beradigan “ShHT plyus” formati ishonchli muloqot uchun zamonning o'zi talab qilayotgan maydonga aylanib bormoqda.

Oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan xalqaro vaziyat hukm surayotgan sharoitda ShHT jahonda barqaror va adolatli tartibotni ta'minlashning mustahkam tayanchlaridan biri, deb hisoblaymiz.

Hurmatli uchrashuv ishtirokchilari!

Ushbu sammitimiz yigirmanchi asrning mudhish fojiasi bo'lgan Ikkinchi jahon urushi tugaganining 80 yilligi bayram qilinayotgan yilda o'tayotgani chuqur ramziy ma'noga ega.

Bu nafaqat muhim tarixiy voqea, balki o'ziga xos ogohlantirish

hamdir. Tinchlik bir marta va doimiy erishiladigan ne'mat emas, uni doimo asrab-avaylash va mustahkamlash zarur.

Nizo va mojarolar to'liqini to'xtatish, ishonchni qayta tiklash, tinch-totuv hayotga intilish, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyil va me'yorlarini hurmat qilish muhimdir.

Shu munosabat bilan hurmatli Rais Si Szinpin ilgari surgan Global boshqaruv bo'yicha tashabbusini qo'llab-quvvatlaymiz.

Xalqaro muammolar haqida gapirganda, G'azo sektoridagi vaziyatga e'tibor qaratmasdan o'tolmayman. Ushbu mintaqada vaziyat yana keskinlashayotgani va aholining ahvoli yomonlashayotgani chuqur tashvish uyg'otmoqda.

Faqat “ikki xalq uchun – ikki davlat” tamoyili asosida Falastin – Isroil masalasiga adolatli yechim topish orqali Yaqin Sharqdagi mojaroni to'xtatish mumkin, deb hisoblaymiz.

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

Ko'p tomonlama hamkorlik borasida, bizning nazarimizdagi, eng muhim vazifalarga qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman.

Birinchisi. Bugungi kunda jahon xavfsizlikni ta'minlashning bizga tanish omillari doirasidan chiqib ketgan tahdid va xatarlarning murakkab majmuasi qarshisida turibdi.

Iqlimning keskin o'zgarishi, energetika va oziq-ovqat resurslari taqchilligi, migratsiya inqirozlari, kiberhujumlar va boshqa ko'plab yangi xavf-xatarlar paydo bo'lmoqda.

Faqat xavfsizlikning bo'linmasligi tamoyiliga asoslangan kollektiv sa'y-harakatlariga xalqlarimiz barqarorligi va farovonligini ta'minlash imkoniyatini berishini ta'kidlab o'tmoqchiman.

Shu ma'noda, ShHT Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi bazasida Xavfsizlikka tahdid va xavf-xatarlarga qarshi kurashish bo'yicha universal markaz, shuningdek, Dushanbeda Narkotiklarga qarshi kurashish markazi tashkil etilganini olqishlaymiz.

Kelgusi yili Toshkentda mamlakatlarimizning vakolatli organlari rahbarlari, yetakchi ekspert va tadqiqotchilar ishtirokida birinchi “Xavfsizlik masalalari bo'yicha ShHT plyus muloqoti”ni o'tkazishni taklif qilaman.

Ikkinchisi. Afg'onistondagi vaziyatni hisobga olmasdan va xalqaro hamjamiyatning afg'on hukumati bilan konstruktiv muloqotini yo'lga qo'ymasdan turib, mintaqamizda barqarorlikni ta'minlash mumkin emas.

Ushbu maqsadga erishish ko'p jihatdan Afg'onistonda, umuman, butun mintaqada uzoq muddatli tinchlik va barqarorlikdan manfaatdor bo'lgan ShHT davlatlarining siyosiy irodasiga bog'liq.



Munosabat

TINCHLIKNI SAQLASHNING MUHIM KAFOLATI



31-avgust – 1-sentyabr kunlari Xitoyning Tyanszin shahrida boʻlib oʻtgan Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT)ning navbatdagi sammitida xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga ega qator masalalar muhokama qilindi. Unda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qatnashib, tashkilot faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan muhim tashabbuslarini ilgari surdi.

ShHT bugungi kunda xavfsizlik, iqtisodiy rivojlanish va madaniy aloqalar sohasidagi koʻp tomonlama hamkorlikni taʼminlovchi asosiy mintaqaviy platforma sifatida tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Tashkilot tarkibidagi davlatlar soni ortib borishi, unga yangidan-yangi aʼzolar va kuzatuvchilarning qoʻshilishi uning xalqaro maydondagi nufuzi va taʼsirini yanada mustahkamlayotir.

Prezident Shavkat Mirziyoyev sammit doirasida soʻzga chiqib, tashkilot samaradorligini oshirish, uning institutsional asoslarini mustahkamlash va aniq mexanizmlar orqali qabul qilingan qarorlarni

amalga oshirish zarurligini taʼkidladi. Uning fikricha, bugungi notinch va murakkab xalqaro sharoitda ShHT mamlakatlari oʻrtasidagi oʻzaro ishonch hamda birdamlik nafaqat qimmatli boylik, balki tinchlikni saqlashning muhim kafolatiga aylanmoqda.

Davlatimiz rahbari tashkilotni transformatsiya qilish jarayonlarini davom ettirish, uning doirasidagi muloqot formatlarini kengaytirish va Global Janub davlatlari bilan hamkorlikni rivojlantirish lozimligini qayd etdi. Shuningdek, xavfsizlik masalalari, xususan, yadro xavfsizligi boʻyicha deklaratsiya qabul qilish, transchegaraviy tahdidlarga va gijohvandlikka

qarshi dasturlar ishlab chiqish, Afgʻoniston boʻyicha ShHT muloqot guruhining faoliyatini tiklashga oid takliflarni bildirdi.

Prezidentimiz xalqaro iqtisodiy sharoitni inobatga olgan holda savdo-iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirishga alohida eʼtibor qaratdi. U mintaqaviy sanoat va infratuzilma loyihalarini qoʻllab-quvvatlash, logistika zanjirlarini shakllantirish, investitsiyalarni jalb qilish hamda strategik materiallar boʻyicha maxsus markaz tashkil etish taklifini ilgari surdi. Uning soʻzlariga koʻra, bugun ishonchli transport yoʻlaklari, raqamli platforma va “yashil” iqtisodiyot elementlarini yaratish gʻoyat muhimdir.

ShHT doirasida madaniy-gumanitar hamkorlikni kuchaytirish, xalqlar oʻrtasida doʻstlik va oʻzaro tushunishni mustahkamlash, “ShHT universiteti”ning onlayn kampusini tashkil etish, yoshlar va talabalar oʻrtasida olimpiadalar oʻtkazish, madaniy festivallarni yoʻlga qoʻyish kabi tashabbuslar bildirildi. Shu orqali tashkilot doirasida xalq diplomatiyasi institutlarini rivojlantirish va umumiy manfaatlarga xizmat qiladigan gumanitar aloqalarni mustahkamlash maqsad qilingan.

Tyanszin sammiti yakunida qator muhim hujjatlar, jumladan, Tyanszin deklaratsiyasi, ShHTni 2035-yilgacha rivojlantirish strategiyasi va boshqa koʻp tomonlama kelishuvlar qabul qilindi. Bu hujjatlar ShHT faoliyatining yangi bosqichini boshlab, uning xalqaro nufuzini yanada oshirishga xizmat qiladi. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan taklif va tashabbuslar ishtirokchi davlatlar tomonidan keng qoʻllab-quvvatlandi va ularni amalga oshirish uchun siyosiy iroda mavjudligi qayd etildi.

Shu tariqa Tyanszindagi ShHT sammiti nafaqat dolzarb masalalarni muhokama qilish, balki tashkilotning kelgusi rivojlanish strategiyasini belgilash nuqtayi nazaridan ham katta siyosiy ahamiyatga ega boʻldi. Oʻzbekiston bu jarayonda oʻzining konstruktiv, tashabbuskor va faol pozitsiyasi orqali mintaqaviy barqarorlik va rivojlanishga oʻz hissasini qoʻshishda davom etayotir.

Shuhrat ASLANOV,
Oliy Majlis Senatining
Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport
masalalari qoʻmitasi aʼzosi.

ShHT sammiti:

OʻZBEKISTON TASHABBUSLARI – MAMLAKATIMIZ VA MINTAQANING YANGI RIVOJLANISH YOʻLI SARI DADIL QADAM

Ayni kunlarda mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Zsinpingning taklifiga binoan rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda boʻlib turibdi. Tashrif dasturiga muvofiq, davlatimiz rahbari 31-avgust – 1-sentyabr kunlari Tyanszin shahrida Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisi va “ShHT plyus” formatidagi uchrashuvda ishtirok etdi.

ShHTga aʼzo davlatlar rahbarlari kengashi majlisida mamlakatimiz yetakchisi Shavkat Mirziyoyev tashkilotning siyosiy asoslarini mustahkamlash, mintaqaviy xavfsizlik sohasida hamkorlikni kengaytirish, iqtisodiy va madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

Xususan, Savdoni soddalashtirish tartib-taomillari toʻgʻrisidagi bitimni imzolash, Strategik materiallar boʻyicha mintaqaviy markazga asos solish, mamlakatlarimizda muvofiqlashtirilgan siyosat olib borish va “yashil” energetikani jadal rivojlantirish uchun ShHT Energetika konsorsiumi, startap va innovatsion loyihalarini qoʻllab-quvvatlash uchun Venchur kompaniyalari hamda jamgʻarmalari tarmogʻi, mamlakatlarimiz mintaqalarini jalb qilgan holda, biznes boʻyicha muloqotlarni yoʻlga qoʻyish va investitsiyalarni ilgari surish uchun Maxsus elektron portal kabi qator yangi koʻp tomonlama platformalar va kooperatsiyani qoʻllab-quvvatlash vositalarini tashkil etishni taklif qildi.

Prezidentimiz ilgari surgan bu tashabbuslar Oʻzbekiston uchun tashqi savdoni yengillashtiradi, investorlarni jalb etadi, startaplar uchun yangi moliyaviy manbalar ochadi. Energiya bozorida barqaror taʼminotga erishiladi. ShHT davlatlari oʻrtasida yagona iqtisodiy makon shakllanadi, raqamli va “yashil” iqtisodiyotning rivojlanishi tezlashadi. Bu nafaqat iqtisodiy manfaat keltiradi, balki mintaqani “yashil” energetika, innovatsiya va biznes integratsiyasi markaziga aylantiradi. Oʻz navbatida, bu yangi ish oʻrinlari, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish va barqaror iqtisodiy oʻsish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Bu tashabbuslarning amaliy ahamiyati juda keng va bir nechta muhim yoʻnalishlarda namoyon boʻladi, jumladan, “yashil” energetikani jadallashtirish yoʻnalishida ShHT Energetika konsorsiumi orqali mamlakatlar qayta tiklanuvchi energiya (quyosh, shamol, gidroenergiya) sohasida qoʻshma loyihalarini amalga oshirishi mumkin. Energiya taqchilligi muammosi kamayadi, ekologik toza manbalarga oʻtish tezlashadi. Texnologiya almashinuvi kuchayib, elektr ishlab chiqarish xarajatlari arzonlashadi.

Gʻoyalarni namoyish etish imkoniyatlari kengayadi

Taʼkidlash joizki, innovatsiya va startaplarni rivojlantirish yoʻnalishida venchur kompaniyalar hamda jamgʻarmalar tarmogʻi yosh ixtirochilar, startapchilar va innovatorlarga moliyaviy koʻmak beradi. Yangi texnologiyalar bozorga tezroq kirib

keladi, mintaqada innovatsion ekotimiz shakllanadi. Talabalar va yosh olimlar uchun xalqaro miqyosda oʻz gʻoyalarni namoyish etish imkoniyatlari kengayadi.

Biznes aloqalarini mustahkamlash yoʻnalishida esa maxsus elektron portal – investitsiyalar va biznes imkoniyatlarini birlashtiruvchi yagona raqamli maydon vazifasini oʻtaydi. Mamlakatlar hududlari oʻrtasida qoʻshma loyihalarini topish, shirik izlash va muzokaralarni tezkor olib borish imkoniyati paydo boʻladi. Savdo-sotiq, xizmatlar va qoʻshma korxonalar soni ortadi. Shuningdek, bu tashabbus bois investitsiyalar oqimi oshadi. Investorlar uchun aniq, shaffof va qulay platforma yaratiladi. Qonunchilik, loyihalar va imtiyozlar haqida barcha maʼlumotlar bir joyda jamlanadi. Mintaqaga xorijiy kapital oqimi koʻpayib, iqtisodiy oʻsish tezlashadi.

Mintaqaviy integratsiyani kuchaytirish, oʻz navbatida, mamlakatlarga bir-birining imkoniyatlarini toʻldirib, umumiy iqtisodiy makonni rivojlantirishda qoʻl keladi. Bu esa ShHTning xalqaro nufuzini oshiradi va uni nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy markaz sifatida ham mustahkamlaydi.

“Bir makon, bir yoʻl” tashabbusi doirasida transport-logistika, energetika va infratuzilma sohalaridagi loyihalar davlatlar oʻrtasidagi strategik hamkorlikni yanada mustahkamlamoqda. Bu nafaqat tovar, balki yangi ish oʻrinlari va texnologik almashinuvi ham taʼminlaypti.

Davlatimiz rahbari sammitda mintaqaviy sanoat va infratuzilma loyihalarini moliyaviy qoʻllab-quvvatlashning samarali vositalarini tezroq joriy qilish muhimligiga barchanang eʼtiborini qaratdi. Shimol – Janub va Sharq – Gʻarb yoʻnalishlari boʻyicha transport-tranzit salohiyatini toʻliq ishga solish mamlakatlarimizning umumiy manfaatlarga javob berishini eʼtirof etdi.

“ShHT yagona transport makoni”ni shakllantirish va uni “Bir makon, bir yoʻl” strategik tashabbusi bilan bogʻlash boʻyicha saʼy-harakatlarni muvofiqlashtirish uchun katta imkoniyatlar borligi, bu yangi multimodal tarmoqlar, raqamli platformalar va “yashil” yoʻlaklar yaratishni nazarda tutishi, ayni yoʻnalishda koʻp tomonlama konsepsiyani ishlab chiqishni taklif etdi. Ayni tashabbus Oʻzbekiston geografik jihatdan markazda joylashgani bois tranzit salohiyatini maksimal darajada ishga solishiga yoʻl ochadi. Bu yangi daromad manbalari va logistika infratuzilmasining rivojlanishini taʼminlaydi. Yevropa – Osiyo savdo yoʻllari qisqaradi, mintaqaviy integratsiyani kuchaytiradi. Shuningdek, “Ustuvor yoʻnalish sifatida

– ShHTning “yashil” transformatsiya sohasidagi hamkorligini kengaytirish, Xitoy tomonining tashabbusi bilan “Yashil” sanoat sohasida hamkorlik toʻgʻrisidagi bayonot oʻz vaqtida qabul qilinmoqda”, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Ekologik boshqaruvning yangi bosqichi

Iqtibos: “Iqlim oʻzgarishiga moslashish, havoga zaharli gazlarni chiqarishni kamaytirish, ekologik xavf-xatarlarni boshorat qilish uchun sunʼiy intellekt texnologiyalarini joriy etish masalalari boʻyicha mintaqaviy platformani ishga tushirish zarur”.

Prezidentimizning bu tashabbusiga ekologik boshqaruvning yangi bosqichi sifatida qarash maqsadga muvofiq. Uning joriy etilishi qator ijobiy natijalarga olib keladi:

“ Prezidentimiz ilgari surgan tashabbuslar Oʻzbekiston uchun tashqi savdoni yengillashtiradi, investorlarni jalb etadi, startaplar uchun yangi moliyaviy manbalar ochadi. Energiya bozorida barqaror taʼminotga erishiladi. ShHT davlatlari oʻrtasida yagona iqtisodiy makon shakllanadi, raqamli va “yashil” iqtisodiyotning rivojlanishi tezlashadi. Bu nafaqat iqtisodiy manfaat keltiradi, balki mintaqani “yashil” energetika, innovatsiya va biznes integratsiyasi markaziga aylantiradi. Oʻz navbatida, bu yangi ish oʻrinlari, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish va barqaror iqtisodiy oʻsish uchun mustahkam zamin yaratadi.”

Ekologik xavfsizlik: atrof-muhit monitoringi va xavf-xatarlarni prognozlash imkoniyatlari kengayadi.

Moslashuvchan siyosat: iqlim oʻzgarishi oqibatlarini yumshatish va moslashuv strategiyalarini ishlab chiqish samaradorligi oshadi.

Mintaqaviy integratsiya: davlatlar oʻrtasida maʼlumot almashinuvi va qoʻshma tashabbuslarni amalga oshirish mexanizmlari shakllanadi.

Investitsion imkoniyatlar: “yashil” texnologiyalarini joriy etish orqali xalqaro moliya institutlari va investorlarni jalb qilish imkoniyati kengayadi.

Innovatsion rivojlanish: ilmfan, startaplar va sunʼiy intellekt sohasida kadrlar tayyorlashga turki boʻladi. Mazkur tashabbus mintaqamamlakatlarini barqaror rivojlanish maqsadlariga yaqinlashtirish, ekologik xavfsizlikni taʼminlash va iqlimiy muammolarga qarshi kurashda yangi bosqichni boshlab berishi, shubhasiz.

Prezidentimiz taʼkidlaganidek, madaniy aloqalarini yanada chuqurlashtirish va xalq diplomatiyasi institutini kuchaytirish ShHT doirasidagi uzoq muddatli sheriklikning muhim omili hisoblanadi.

Xalq ijodiyoti xalqaro festivallarini oʻtkazish, “ShHT universiteti” sheriklik tarmogʻining onlayn kampusini yaratish, innovatsion yoʻnalishlar boʻyicha har yili talabalar va yosh mutaxassislar oʻrtasida tanlov va olimpiadalar tashkil etish gumanitar almashinuvarni rivojlantirish hamda xalqlarimizni yanada yaqinlashtirishga kuchli turki berishini taʼkidladi. “Sayyohlik yoʻlagi” va ShHT tibbiyot turizmi alyansini ishga

tushirish kabi istiqbolli loyihalarini ishlab chiqishni taklif qildi.

Bu tashabbuslarning amaliy ahamiyatini bir necha yoʻnalishlarda koʻrishimiz mumkin. Jumladan, madaniy-maʼnaviy yaqinlashuv – xalq ijodi festivallari, xalqaro tanlov va olimpiadalar millatlararo doʻstlikni mustahkamlab, madaniy almashinuvi jonlantiradi. Bu esa xalqlar oʻrtasidagi ishonch va oʻzaro hurmatni oshiradi.

Taʼlim va ilmiy integratsiya – “ShHT universiteti”ning onlayn kampusi aʼzo davlatlar talabalari hamda mutaxassislariga yagona bilim makonida taʼlim olish imkonini beradi. Bu kadrlar tayyorlashda hamkorlikni kengaytiradi va raqobatbardosh mutaxassislarni yetishtirishga xizmat qiladi.

Yoshlar uchun imkoniyatlar – muntazam oʻtkaziladigan tanlov va olimpiadalar yoshlar tashabbuskorligini ragʻbatlantirib, yangi gʻoyalar va

Xitoy – Oʻzbekiston kam uglerodli sanoat uchrashuvi va Seul ODA loyihalar orqali texnologik yutuqlarni targʻib qilmoqda hamda shaharlar va korxonalar oʻrtasida hamkorlikni rivojlantiraypti.

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligining “yashil” yechimlarni tatbiq etish va barqaror rivojlanish sohasidagi “Yoʻl xaritasi”da barqaror shahar transporti sohasida ilmiy tadqiqot va innovatsion loyihalar istiqbollari hamda uning rivojlanishida tadbirkorlik subyektlarining oʻrni boʻyicha seminarlar oʻtkazish belgilangan. Xalqaro Nordik universiteti tomonidan “donor”larni jalb etish, shu jumladan, “ICLEI” va “KCCI” bilan homiylik masalasini muhokama qilish qayd etilgan.

Xalqaro Nordik universiteti Oʻzbekiston Respublikasi Transport vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi, mahalliy hokimiyat organlari, ilmiy-tadqiqot tashkilotlarini jalb etgan holda ishtirokchilari doirasini belgilab, xalqaro ekspertlarni ham taklif qilgan holda qator muhokama sessiyalarini oʻtkazdi.

Oʻzbekistonning xalqaro maydondagi faoliyatiga Xalqaro Nordik universiteti oʻz tashabbuslari bilan hissa qoʻshmoqda. Xususan, ShHTning qator sammitlarida ilgari surilgan “yashil” rivojlanish va innovatsiyalarni qoʻllab-quvvatlash maqsadlariga uygʻun ravishda, universitetning “ICLEI” xalqaro tashkiloti bilan hamkorligi samarali davom etmoqda. Shenjenda boʻlib oʻtgan forumda Oʻzbekiston delegatsiyasi “Past uglerodli sanoatni rivojlantirish” mavzuida oʻz yondashuvini taqdim etdi.

Shuningdek, Toshkent shahri, Samarqand va Navoiy viloyatlaridagi uchrashuvlar davomida “ICLEI” delegatsiyasi mahalliy hokimiyatlar bilan resurslarni tejash, “aqlli” texnologiyalar, “yashil” transport va past uglerodli ishlab chiqarish masalalarini muhokama qildi.

Joriy yilgi xalqaro uchrashuvlar – Janubiy Koreyaning Goyang shahrida oʻtgan Butunjahon mahalliy hukumatlar sammitida Oʻzbekiston vakillari “Ilmiy asoslangan yashil transformatsiya” boʻyicha chiqish qildi. Seuldagi sessiyalarda esa Xalqaro Nordik universiteti va “ICLEI” hamkorligida quyosh va qayta tiklanadigan energiya manbalari boʻyicha maxsus seminar tashkil etildi.

Shu bilan birga, “ICLEI” tashkiloti Oʻzbekistonda, xususan, Xalqaro Nordik universiteti qoshida oʻz ofisini ochishni rejalashtirmoqda. Bu tashabbus mamlakatimizga xalqaro loyihalar, texnik yordam, treninglar va innovatsion dasturlarni kengroq jalb etish imkonini beradi.

Universitetimiz kelgusida oʻz tashabbuslari orqali ShHT doirasida belgilangan yangi ustuvor yoʻnalishlar – “yashil” iqtisodiyot, innovatsiyalar, xalqaro hamkorlik va taʼlim almashuvini hayotga tatbiq qilishda amaliy koʻprik vazifasini bajarishda davom etadi.

Sherzod MUSTAFOQULOV,
Xalqaro Nordik universiteti
rektori, professor.

Senat aralashuvidan soʻng...

ASOSSIZ RAD ETILGAN LOYIHALAR OVOZ BERISH BOSQICHIGA OʻTKAZILDI

Oliy Majlis Senati aralashuvi natijasida Oltinkoʻl va Ulugʻnor tumanlaridagi “Tashabbusli byudjet” loyihalari boʻyicha ovoz berish bosqichiga start berildi.

Avvalroq ushbu tumanlarda “Tashabbusli byudjet” jarayonining joriy yilgi ikkinchi mavsumida taqdim qilingan loyihalar tuman ishchi komissiyalari tomonidan asossiz ravishda rad etilgani aniqlangan va shu munosabat bilan Andijon viloyati hokimiga loyihalarini belgilangan mezonlar asosida qayta koʻrib chiqish yuzasidan senator soʻrovi yuborilgan edi.

Soʻrovga muvofiq loyihalar qayta koʻrib chiqildi. Natijada Oltinkoʻl tumanida 93 ta, Ulugʻnor tumanida 57 ta loyiha ovoz berish bosqichiga oʻtkazildi. Shuningdek, ushbu tumanlarda 39 ta loyiha asosli rad etish xulosasi bilan qaytarildi.

“Ochiq byudjet” portalidagi

dastlabki maʼlumotlarga koʻra, Ulugʻnor tumanida jami 73 ta loyiha taqdim qilingan boʻlib, shundan faqat 13 tasi (18 foiz) ovoz berish bosqichiga oʻtkazilgan, qolgan 60 ta loyiha esa asoslantirilmagan holda rad etilgan edi. Xuddi shuningdek, Oltinkoʻl tumanida 116 ta loyihaning faqat 22 tasi (19 foiz) saralashdan oʻtgan loyihalar yuzasidan ovoz berish jarayoni joriy yil 29-avgustdan boshlab yoʻlga qoʻyildi.

“Xalq soʻzi”.

XALQPARVARLIK, INSONPARVARLIKNING AMALIY IFODASI

Hayotda adashgan, qilmishiga chin dildan pushaymon boʻlgan kishilarni kechirish, ularga toʻgʻri yoʻl topishi uchun imkon berish, qoʻllab-quvvatlash asl insoniy qadriyatlardandir. Bu yaqin insonini iztirib va itizorlik bilan kutayotgan butun bir oilani yangidan hayotga qaytarish bilan barobar.

Aks sado

Soʻnggi yillarda qoʻllanilgan mahkumlarni afv etish va qayta ijtimoiylashtirish siyosati amalda oʻzining ijobiy natijalarini bermoqda. Chunki afv – bu aybdorni kechirish, qilmishidan qattiq pushaymon boʻlganning uzrini qabul qilishdir. Bu institutning afzalligi, ikki tomon manfaatlari uchun adolatli yondashuv boʻlib, jabr yetkazuvchi va jabr koʻruvchilar manfaatini bir xilda himoya qiladi.

Afv zamirida nafaqat kechirimlilik, balki yuksak insonparvarlik mujassam. Sababi, afv etilgan shaxslarning oila aʼzolari, yaqinlari ham bunday insonparvarlik munosabatidan bahramand boʻladi. Adolatli jamiyatda aybdorlarni jazoga tortishdan maqsad ularni jazolab yanada ashaddiyashtirish emas, balki toʻgʻri yoʻlga qaytarish, jamiyatning toʻlaqonli aʼzosisga aylantirishdir.

Bir insonni afv etish bilan koʻplab insonlarning koʻnglida davlatga nisbatan ishonchni mustahkamlash mumkin. Shu bois adashib, nomaqbul yoʻlga kirgan, ammo kech boʻlsa-da oʻz qilmishi xatoligini anglab yetib, chin dildan pushaymon boʻlgan va tuzalish yoʻliga qatʼiy oʻtgan yurtdoshlarimizning sogʻlom berish va qayta tiklanadigan energiya manbalari boʻyicha maxsus seminar tashkil etildi.

Mamlakatimiz mustaqilligining 34 yilligi arafasida Prezidentimiz tomonidan imzolangan “Jazo muddatini oʻtayotgan, qilmishiga chin koʻngildan pushaymon boʻlgan va tuzalish yoʻliga qatʼiy oʻtgan bir guruh shaxslarni afv etish toʻgʻrisida”gi Farmon bunday insonparvarlik siyosatining amaliy tasdiqi boʻldi.

Muhimi, ushbu xayrli anʼana nafaqat ular, balki jamiyat uchun ham oʻziga xos tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Zero, afv adolat mezonlarini taʼminlab, jamiyatimizda odillik va bagʻrikenglik muhitini mustahkamlaydi.

Mazkur hujjatga muvofiq, 523 nafar vatandoshimizga shunday baxt nasib etdi. Ularning 195 nafari asosiy jazodan toʻliq ozod qilindi, 147 nafari jazoni oʻtashdan muddatidan ilgari shartli ozod etilgan boʻlsa, 87 nafarining jazosi yengilroq bilan almashtirildi. 94 nafar shaxsning esa jazo muddatlari qisqartirildi. Bu – shuncha oilaga quvonch, shodlik va umid olib kirdi, degani.

Ushbu hujjat qanchadan-qancha insonlarga, ularning oilasi va yaqinlariga haqiqiy bayram tuhfası boʻldi. Oʻz navbatida, bunday xayrli ishlar jamiyat muhitini sogʻlomlashtirishga, barqarorlik mustahkam qaror topishiga ham xizmat qiladi.

Binobarin, hujjatda afv etilgan shaxslar oilasi va yaqinlari bagʻriga qaytib, ijtimoiy hayotga moslashishi, foydali mehnat bilan shugʻullanishi, sogʻlom turmush tarzini yoʻlga qoʻyib, jamiyatda munosib oʻrin topishida ularga koʻmak koʻrsatish boʻyicha masʼul vazirlik va idoralarga tegishli topshiriqlar berildi. Bu ularning oilasi va xalqimiz oldida oʻzini oqlashi, hayotda oʻrnini topishi, halol mehnat qilib, turmush tarzini izga tushirishi uchun yana bir imkoniyatdir.

Ayni jarayonda afv etilgan shaxslarning ijtimoiy hayotga moslashib, foydali mehnat bilan shugʻullanishi, sogʻlom turmush tarzini yoʻlga qoʻyib, jamiyatda munosib oʻrin topishi uchun yaqindan koʻmak berilayotgani ularning bu imkoniyatlardan tegishli xulosa chiqarib, yurt taraqqiyotiga oʻz hissasini qoʻshishi, oilasi va yurtimizga naf keltirishida muhim omil boʻladi.

Odinaxon
OTAXONOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati.

Inson qadri – ulugʻ, xotirasi – muqaddas

UNUTMAS MENI BOG'IM...

Bu muqaddas yurtida inson – aziz, uning qadri – ulugʻ, xotirasi – muqaddas. Jonajon O'zbekistonimiz mustaqilligining o'ttiz to'rt yilligi arafasida imzolangan "O'zbekistonda ilm-fan, adabiyot, madaniyat va san'at sohalarini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan bir guruh marhum olim va ijodkorlarni mukofotlash to'g'risida"gi Prezident Farmoni bu fikrning amaliy tasdiqi bo'ldi.

Farmonga muvofiq, mamlakatimizda ilm-fan, adabiyot, madaniyat va san'at sohalarini rivojlantirish, jamiyatimizda ezgulik va adolat, vatanparvarlik va bag'rikenglik tamoyillarini mustahkamlash yo'lida fidokorona xizmat qilib, avlodlarga qoldirgan boy merosi, sermazzun hayoti va insoniy fazilatlarini bilan el-yurt xotirasidan chuqur joy egallagan bir guruh marhum olim va ijodkorlar ordenlar bilan mukofotlandi. Ular orasida xalqimizning suyuqli shoirilari – Quddus Muhammadiy,

Rauf Parfi, To'ra Sulaymon, Anvar Obidjon va Muhammad Yusuf ham bor.

She'riyat – so'z san'ati, adabiy boylik. U qalblardan joy oldimi, o'quvchi mehrini qozondimi, tildan tilga, dildan dilga o'tib yashayveradi. Shu ma'noda, chinakam shoirilarning adabiy merosi – abadiyatga daxldor. Ma'rifatparvar, otashnafas shoir Usmon Nosir she'rilaridan birida "Bargdek uzilib ketam, unutmam meni bog'im", deb yozganida ayni haqiqatni nazarda tutgandi.

Inson qadrini ulug'lash, ajdodlar xotirasini e'zozlash, ularning ibratli ishlarini keng targ'ib etish borasidagi ezgu sa'y-harakatlarning uzviy davomi sifatida Prezidentimiz Farmoni bilan mukofotlangan xalq shoirilarining ijodiy merosidan guldasta hozirlandi. Quyida bog'iy satrlar asosida tayyorlangan she'riy turkum e'tiboringizga havola qilinmoqda.



SHE'RIM, OCHIL DASTURXON

She'rim, ochil dasturxon,
She'rim – ochiq dasturxon.
El o'g'lin qilay mehmon,
Bo'layin ulkan mezbob.
Shoiringman mehribon,
Qilgim kelar ulkan ish,
Dunyoda eng ko'rkam ish.
She'r bulog'im qayna, jo'sh,
She'rjonim, bo'l oqqush,
She'rim hayot bog'bonim,
She'r askarim – posbonim.
Pahlavon beozorim,
Ko'ngillarni yozarim,
Yuragim osmonisan,

El-yurtim posbonisan,
Tinchligim kaptarisan,
O'quvchim daftarisan.
Qadrdon maktabimsan,
Yuragim, rubobimsan.
Sensan qo'shiq, ulkan kuy,
Sen kirmagan biron uy,
Sen bo'lmagan bayram, to'y,
Qolmasin hech bir elda.
Yangra she'rim, ming tilda.
Xalq yuragin makon et,
Xalqim ko'nglin osmon et.
Yoqimli bo'l havodek,
Jon ozig'im navodek,

Jon bag'ishla o'likka,
Zavq bag'ishla tirikka.
She'r desam jonim erir,
Jonu jahonim erir.
Onamning allasi she'r,
Hofizlar yallasi she'r.
Xalqimga madadkorim.
"Hayt" tuyaga madorim.
She'rim, ochil dasturxon,
She'rim – ochiq dasturxon.

Quddus MUHAMMADIY,
O'zbekiston xalq shoiri.

SO'NMAS RUHIMIZDA
MATONAT ASLO

So'nmas ruhimizda matonat aslo,
Ajdodlar sharafi abadiy yashar.
Mukarram ziyosan, ey turkiy Dunyo,
Qo'llagil, Allohim, qo'llagil, Basha.
So'nmas ruhimizda matonat aslo.

Jahonga, Insonga muhabbat porlar,
Yolg'iz Allohimiz, chorlar Istiqlol.

Uyg'on, turk Dunyosi, muqaddas Turon,
Quyosh, boshimizdan sochg'il qutlug' nur.
Asl Turk yurti bu, qadim, navqiron,
Temur umidi bu, Turkiston mag'rur,
Uyg'on, turk Dunyosi, muqaddas Turon.

Yolg'iz Allohimiz, chorlar Istiqlol,
Muborak siymolar, botirlar chorlar.
Yolg'iz panohimiz, chorlar Istiqlol,

Rauf PARFI,
O'zbekiston xalq shoiri.

TALABALAR
MADHIYASI

Vatanida Toj Mahallar tiklar sulton –
Boburlari, Behzodlari, ilm istang.

Haq yo'lida siz – ilmning ummatlari,
Xalq yo'lida hidoyati, himmatlari.
Madad bo'lsin Yassaviyning hikmatlari,
Bobo Mashrab bayotlari, ilm istang.

Ilm istang, izingizdan ibrat yog'sin,
Ixlosingiz, shahdingizdan shiddat yog'sin.
Ortingizdan mag'rur-mag'rur millat yog'sin –
Mulki Turon najotlari, ilm istang!..

Alp o'g'lonlar o'lkasidir O'zbekiston,
Erkli elning qanotlari, ilm istang.
Yarim jahon bunyod etgan Sohibqiron,
Alisherning avlodlari, ilm istang.

Muhammad YUSUF,
O'zbekiston xalq shoiri.

Alp o'g'lonlar o'lkasi bu ko'hna Turon,
Qalqonlari, qanotlari, ilm istang.
Yarim asr bunyod etgan Sohibqiron,
Alisherning avlodlari, ilm istang!

Taxtdan tushganda ham otdan tushmay yurgan,
Ajdodingiz uy qurmagan – Davlat qurgan.
Yurti uchun yelkasida tog'lar surgan,
Rustamlari, Farhodlari, ilm istang.

Ko'z ochganda kezib yetti bahri ummon,
Yeti tilda so'zlashgan biz – tili biyron.

G'ILDIRAGI YO'QDIR
VATANNING

(Bir "Ignabarg she'r"ning davomi)



Ketolmadi Bobur ham boshlab,
G'ildiragi yo'qdir Vatanning.
Borolmas, ming chorla ko'z yoshlab,
G'ildiragi yo'qdir Vatanning.

Qumlog'ini qirdirib bo'lmas,
Tog'in boshqa qurdirib bo'lmas,
Dengiz tomon jildirib bo'lmas,
G'ildiragi yo'qdir Vatanning.

Turaverar botqog'u jari,
Sahrolari siljimas nari,

Surib bo'lmas soz iqlim sari,
G'ildiragi yo'qdir Vatanning.

Vatan degan inimiz bitta,
Vatan bilan dinimiz bitta,
Yaxshi-yomon kunimiz bitta,
G'ildiragi yo'qdir Vatanning.

Fidolikka shaylikda – qudrat,
Erkimizni boy bersak mudrab,
Qocholmaymiz xorijga sudrab,
G'ildiragi yo'qdir Vatanning.

Mozorli xalq sondan o'chmaydi,
Yot millatni yot yer quchmaydi,
Kimdir ko'char, Vatan ko'chmaydi,
G'ildiragi yo'qdir Vatanning.

Anvar OBIDJON,
O'zbekiston xalq shoiri.

YURTIMIZ UMUMTA'LIM MAKTEBLARIDA 2025/2026 O'QUV YILI BOSHILANDI

Mamlakatimiz bo'ylab barcha umumta'lim maktablarida yangi – 2025/2026 o'quv yili dars jarayonlari **bugundan, ya'ni 2-sentyabrdan boshlanadi**.


O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi xabariga ko'ra, umumta'lim maktablaridagi o'quv jarayonining birinchi dars soatlari **"Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!"** shiori ostida **"Kelajak soati"** darslari o'tkaziladi.

Shuningdek, joriy yilda birinchi sinfga qabul qilinadigan **738 ming nafardan ziyod o'quvchilarga 12 nomdagi o'quv qurollaridan** iborat "Prezident sovg'asi" tantanali topshiriladi.

Ma'lumot o'rinda aytish joiz, mustaqilligimizning 34 yilligi bayrami arafasida mamlakatimizda **yuzlab yangi maktablar qurilib**, ta'mirlanib foydalanishga topshirildi.

"Xalq so'zi".

Fakt va raqamlar

ERKINLIK VA
TARAQQIYOT
TIMSOLI

Bu yil jonajon yurtimizda eng ulugʻ, eng aziz ayyom – mamlakatimiz mustaqilligining 34 yilligi "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" degan bosh g'oya asosida o'tkazilgan zahirida chuqur ma'no bor. Ushbu g'oya yangi O'zbekiston taraqqiyotining mohiyatini yorqin ifoda etmoqda.

Mushohada

"Yangi O'zbekiston" bog'ida mamlakatimiz Prezidentining davlat mustaqilligining 34 yilligiga bag'ishlangan bayram tabrigini katta hayajon bilan tingladik. Nutqda ilgari surilgan fikrlar keng jamoatchilik – mahalliy va xorijiy ekspertlar e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Davlatimiz rahbari qanday sinov va mashaqqatlar paydo bo'lmasin, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, milliy birlik va hamjihatlikni mustahkamlash, xalqimizni rozi qilish yo'lidan aslo ortga qaytilmasligini ta'kidladi.

"Boshlagan buyuk ishlarimizni, albatta, oxiriga yetkazamiz. Hech qachon unutmaylik: biz barchamiz bitta xalq, bitta mamlakat, bitta oilamiz! Hammamizning taqdirimiz, kelajagimiz, baxtimiz va yutug'imiz ham yagona va mushtarak. Har bir vatandoshimning yutug'i – bu mening yutug'im, tashvishi – mening tashvishim, degan fikr bilan yashasak, yutug'imiz ko'payib, tashvishimiz, albatta, kamayib boradi", dedi Prezidentimiz.

Darhaqiqat, mustaqillik – ulug' ne'mat, uni asrab-avaylashimiz, mamlakatimizning buguni va ertasi yanada porloq bo'lishida munosib hissa qo'shishimiz lozim. Zotan, istiqlo – bu milliy o'zlikning tiklanishi, kelajak sari qat'iy odimlashning ramzi. U yurtning yuragida yashovchi buyuk g'oya – erkinlik va taraqqiyot timsoli hamdir.

Bugungi kunda milliy istiqlolimiz ko'p millatli butun xalqimizni yangi O'zbekistonni barpo etishdek buyuk maqsad yo'lida birlashtirib, yangi yutuq va marralar sari ilhomlantirmoqda.

"Inson qadri uchun, inson baxti uchun" degan ezgu tamoyilga asoslangan Yangi O'zbekiston g'oyasi amalda qudratli harakatga aylandi, deysizha barcha asoslarimiz bor. Natijada xalqning davlatga bo'lgan ishonchi ortib, boshqaruvning asosiy mezon sifatida xalq manfaatlarini qaratib qaratib.

Keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar yurtimiz taraqqiyotida butunlay o'ziga xos yangi bir sahifani ochdi. Iqtisodiyotimiz 6 foizdan yuqori sur'atlarda barqaror o'sayotgani, yangi O'zbekistonda tadbirkorlik iqtisodiyotini harakatga keltiruvchi, oldinga boshlovchi katta kuchga aylangani fikrimizning yaqqol ifodasidir.

Shu davrga qadar yalpi ichki mahsulot 2 karra oshib,

birgina o'tgan yili 115 mlrd. dollarga, eksport hajmi 26 mlrd. dollarga yetgani, oxirgi sakkiz yilda yurtimizga qariyb 130 mlrd. dollar xorijiy investitsiyalar kirib kelgani aynan O'zbekiston va uning uzoqni ko'ra oladigan xalqparvar Prezidentining sa'y-harakatlari natijasidir.

Davlatimiz rahbarining siyosiy irodasi bilan kuchli, tashabbuskor "tadbirkorlik sinfi" shakllandi. Butun jamiyat tadbirkorga do'st bo'ldi. Mamlakatimiz yetakchisining tashabbusi bilan o'tkazib kelinayotgan ochiq muloqot esa yangi

O'zbekiston siyosatining muhim vositasiga aylanib ulgurdi.

Ochiq muloqot davlat bilan xususiy sektor o'rtasidagi aloqalarni yanada yaqinlashtirdi. Soliq yuki yengillashtirilishi, kredit siyosati liberalallashtirilishi va tadbirkorlikning huquqiy asoslari mustahkamlanishi – ularning barchasi yurtimizda

xususiy sektorning davlat taraqqiyotidagi ulushini yanada oshirmoqda. Natijada o'tgan davrda birgina kichik va o'rta tadbirkorlar soni 2 karra ko'paydi. Bugun ushbu tarmoqda 10 milliondan ortiq aholi mehnat qilib, daromad topmoqda.

Olib borilayotgan xalqchil, adolatli va keng qamrovli islohotlar butun xalqimiz hayotida o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Buni yurtimizda kambag'allik darajasini 6,8 foizga tushirishga erishilgani misolida yaqqol ko'rish mumkin. Agar xalqaro tashkilotlar besh-olti yil oldin ushbu raqamni 35 foiz atrofida baholaganini hisobga olsak, qisqa davrda bu borada qanday katta yo'lni bosib o'tganimiz ayon bo'ladi.

Ayniqsa, oxirgi sakkiz-yil davri o'tgan yilga yurtimiz ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy hayotida tub islohotlar va burilishlar davri bo'layotganini har birimiz o'z hayotimizda his qilmoqdamiz. Pirovardida O'zbekistonni jahon hamjamiyati tanidi, xalqimizning fidokorona mehnati, yoshlarimizning har sohada yutuqlari, g'ayrati va azmu shijoati bilan Vatanimizning shon-shuhrati olamga yoyildi.

Diyor HUSANOV,
Oliy Majlis
Qonunchilik palatasi
deputati.

Toshkentda umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari davomati "Smart School" elektron dasturi orqali nazorat qilinadi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G 642, 13 107 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqoq. O'fset usulida bosilgan. Qo'g'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqir qilinmaydi va umalligga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ommaviy rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahriyriyat kompyuter markazida terildi hunda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbachi muharrir H. Qarshiyev.
Musahhib S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 23.35 Topshirildi – 00.10

1 2 3 4 5 6